



## O'zbekistonda mediata'limning dolzarb masalalari

Po'latova Gulmira Murodovna

Mirzo Ulug'bek nomidagi

O'zbekiston Milliy universiteti

1-kurs talabasi, gulmirapolatova01@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12591697>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-iyun 2024 yil

Ma'qullandi: 24-iyun 2024 yil

Nashr qilindi: 29-iyun 2024 yil

#### KEY WORDS

*media, mediata'lim, mediasavodxonlik, sun'iy intellekt, ommaviy axborot vositalari*

### ABSTRACT

*Ushbu maqolada media va mediata'limning dolzarb masalalari va bugungi rivojlangan davrda media va mediasavodxonlikning dolzarb masala ekanligi yoritib beriladi. Shuningdek, O'zbekistonda talaba yoshlar uchun mediata'limning rivojlanishi qanchalar darajada muhim ekanligi haqida ham so'z yuritiladi.*

### Kirish

Biz bilamizki, bugungi kunda nafaqat O'zbekiston ta'limini va yana butun dunyo ta'limini ham mediata'limsiz tasavvur qilish qiyin. Ayniqsa, hozirda sun'iy intellektlar ham rivojlangan sari odamlar ortiq hech qanday kitoblar varaqlash uchun ehtiyoj sezmayapti, biz mobil telefonlarimiz, kompyuterlarimiz, smartfonlarimiz orqali har qanday muammolarni ortiqcha qo'l kuchi sarflamagan holda AI (artificial intelligence) orqali hal qilyapmiz. Har bir mamlakatda mediasavodxonlikni, sun'iy intellektlarni rivojlantirish uchun ko'plab muhim ishlar olib borilyapti. Xususan, bizning yurtimiz ham mediata'limni rivojlantirish borasida boshqa davlatlardan ortda qolmagan holda harakatlar olib bormoqda. Biz dunyoni ommaviy axborot vositalarisiz, mediata'limsiz tasavvur ham qilolmaymiz, ular bizga ma'lumotlarni oson va tez qabul qilish, yetkazish, foydalanish imkonini beradi. Oddiy qilib aytadigan bo'lsak, mediata'limning rivojlanishi bizni ko'plab rivojlangan davlatlar qatorida yetakchi davlatga aylantira oladigan eng muhim va samarali yo'llardan biridir. Bundan tashqari mediasavodxonlik odamlarni jamiyat muammolariga shunchaki ko'z yumadigan insondan boshqa tanqidiy fikrlovchi, ijodkor, samarali muloqotchi hamda faol fuqarolar bo'lishga ham undaydi.

### Adabiyotlar tahlili va metodlar

Media (ing. media, lot. o'rta "vositachi" so'zidan) keng tushuncha bo'lib o'z ichiga aloqa vositalarini, axborotni uzatish usullarini, shuningdek, ular hosil qiladigan muhitni (media makonni) oladi. Media" kontseptsiyasini ishlab chiqish asoschilari Toronto universiteti xodimlari Garold Innis va Marshall Maklyuhanlardir. Mediasavodxonlik bugungi kunda butun dunyoda keng o'rganilib kelinmoqda, xususan, Buyuk Britaniya va Avstraliyada gumanitar

fanlar majmuasida alohida fan sifatida o'tilsa, Finlyandiyada 1970-yildan o'rta maktablarning, 1977-yildan esa oliy o'quv yurtlarning o'quv dasturlariga kiritilgan edi. 1990-yilda esa mamlakatda mediasavodxonlik, mediata'lim tushunchasi bilan almashtirildi. Shvetsiyada esa u 1980-yildan boshlab fan sifatida o'qitila boshlangan[1]Qolaversa, bizda ham mediata'limni rivojlantirishga qaratilgan bir qancha muhim ishlar amalga Xususan,22-oktyabr kuni Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti "Raqqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonining dolzarb vazifalarini ijro etishga bag'ishlangan yig'ilish videokonferensaloqa orqali o'tkazildi.Farmonga muvofiq 2020-2022 yillarda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning turli sohalarida 400 dan ortiq axborot tizimlari, elektron xizmatlar va boshqa dasturiy mahsulotlar joriy etilishi hamda iqtisodiyotning real sektori tarmoqlaridagi korxonalarda boshqaruv, ishlab chiqarish va logistika jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha 280 dan ortiq axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlar joriy etilishi ko'zda tutilgan.[2]. Bundan tashqari, mamlakatimizda IT sohasi va IT kadrlarini tayyorlash masalasiga qaratilgan qaratilgan bir qancha muhim qarorlar qabul qilindi. O'zbekistonda ham mediata'limni rivojlantirishga qaratilgan ishlar jadallik bilan olib borilayotganining dalili sifatida 2017-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Milliy media kengashida ham ko'rishimiz mumkin. Kengashda Milliy media kengaishining maqsad va vazifalari hamda media sohasidagi islohotlar ham tushuntirib o'tilgan. Hozirda yurtimizning ko'plab oliy ta'lim muassasalarida ham mediasavodxonlik dars sifatida o'tiladi. Misol uchun, O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, Qarshi davlat universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Samarqand davlat chet tillari universitetlarining jurnalistika va boshqa bir qancha yo'nalishlarida mediasavodxonlik va axborot madaniyati fan sifatida o'qitilib kelinmoqda.

Mediasavodxonlik o'zi nima? Mediasavodxonlik inson jamiyatdagi fuqaro sifatidagi mas'uliyatini his qilgan holda faol va savodli bo'lishi, media matnlarni qabul qila olishi, yaratishi, tahlil eta olishi va baholashi, zamonaviy mediani ijtimoiy-madaniy va siyosiy mazmunini tushuna olish demakdir. Biz aynan jamiyatda sodir bo'ladigan axborotlarni qabul qilishimiz uchun mediasavodxonlik bilimlariga, ko'nikmalariga ega bo'lishimiz kerak.Tadqiqotlarga ko'ra, bugun jahonda 3 milliard kishi yoki dunyo aholisining 40 foizi ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanadi. Izlanishlar odamlar bir kunda o'rtacha 2 soat vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazayotganini ko'rsatmoqda. Bu degani, bizning hayotimizning katta qismi ijtimoiy tarmoqlarga bog'lanib qolgan. Har bir inson o'rtacha har kuni 2 soat vaqtini aynan ijtimoiy tarmoqlarda o'tkazmoqda. OAV orqali uzatilayotgan va qabul qilinayotgan kundalik axborotni saralash ko'nikmalarini shakllantirish, axborot orqali inson ongini boshqarishga yo'l qo'ymaslik va har qanday vaziyatda to'g'ri qaror qabul qilish uchun ham biz mediasavodxon bo'lishimiz, mediadan xabardor bo'lishimiz kerak. Mana nima uchun mediasavodxonlik bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri.Huquqiy demokratik jamiyatimizning to'laqonli, faol fuqarosi sifatida amalga oshirilayotgan islohotlar mazmun - mohiyatini tushunish,insonning vizual obrazlar ta'siri ostida ijobiy yoki salbiy tomonga o'zgarishlarini tahlil eta olish va vizual xabarlar ostida beriladigan ko'rinmas ma'lumotlarni o'qiy olish, axborot qayerdan, kim tomonidan va nima maqsadlarda uzatilayapti, kimning manfaatlarini o'zida aks ettirayapti, degan savollarga javob topa olish uchun ham biz mediadan xabardor bo'lishimiz darkor.

### **Muhokama**

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda talaba yoshlarga qulaylik yaratish maqsadida deyarli barcha ma'ruza darslarida o'qituvchilar taqdimotlardan (turli xil mavzuga doir slaydlar, prezentatsiyalardan) foydalanadilar. Shuningdek, onlayn platformalarda ( Youtube, facebook,

telegram kabi ) ham fanni o'zlashtirmoqchi bo'lgan har qanday inson kerakli manbalarni, darsliklarni, video darsliklarni ham bemalol topa oladi. Medianing imkoniyati shu qadar cheksizki, biz uchun hozirgi kunda ayniqsa ilm olish uchun ko'plab imkoniyatlarni yaratib bergan. Masalan, hozirda har qanday inson bemalol biror chet tilini qiyinchiliklarsiz o'zguna oladi, chunki buning uchun bizda yetarli manbalar, saytlar, platformalar yaratilgan. Bugungi kunda kundan kun rivojlanib borayotgan ChatGptni misol sifatida olsak, bu sun'iy intellekt yordamida hech qanday o'qituvchisiz ham insonlar ingliz tilini bemalol o'rgana olyapti. Buning sababi bu platformadan hozirda butun dunyo foydalanmoqda va uning bilim darajasi ham kundan kunga kengayib, rivojlanib ketyapti. Bu bizning professional rivojlanish sari chiqayotganimizning yaqqol isboti desak adashmagan bo'lamiz.

Media ta'lim natijasida mediasavodxonlik faqat o'quvchilarni zamonaviy axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi yoki axborotni tez va oson hamda tanqidiy yo'l bilan qabul qilishi orqali cheklanib qolmaydi. Media savodxonlik orqali talaba tez va oson izlagan saytlariga kira olishi, axborotlardan samarali foydalanishi, potensial axborot manbalarining turli xil turlarini, formatlarini aniqlashi va yana ko'plab ishlarni bajarishi mumkin. Amerikalik yozuvchi, media nazoratchisi va madaniyat tanqichisi bo'lgan Nill Postman "O'lingacha ko'ngil ochish" asarida ommaviy axborot vositalarining translyatsiya ma'lumotlariga tobora ortib borayotgan "ko'ngilochar" ta'sirini ko'rib chiqadi. Muallifning xulosasiga ko'ra, ommaviy axborot vositalari axborot sifatini ikkinchi o'ringa qo'yib, bo'sh vaqt va ko'ngil ochishga bo'lgan ehtiyojni qondirishni birinchi o'ringa qo'yadi. Kitobga ko'ra, ommaviy axborot vositalaridagi shaxs yoki ob'ektning tasviri haqiqatning o'zidan kam emas. Uning so'zlariga ko'ra, hozirgi bosqichda texnologiya rivoji tufayli hatto saylovchilar ham siyosatchining haqiqiy faoliyatiga emas, balki uning qiyofasiga ko'proq e'tibor qaratmoqda[4]. Bundan tashqari mutaxassislar ma'lumotiga ko'ra, internet orqali tarqatiladigan axborotning 49 foizi sezilarli darajada zo'ravonlik va yovuzlikning, 57 foizi axloqsizlikning bevosita va bilvosita targ'ibotiga xizmat qiladi. 25 foiz axborot esa yolg'on, to'qima, 31 foiz ma'lumot haqiqatga to'la mos emas. Bu holat yoshlar ongu shuuriga kuchli ta'sir etuvchi yot, buzg'unchi g'oyalar, milliy mentalitetimizga zid, zararli odat va ko'nikmalar, tekshirilmagan axborotga ham birdek taalluqlidir. Shu va shunga o'xshagan medianing salbiy tomonlari ham bo'lishi tabiiy hol, albatta. Biroq biz uning cheksiz imkoniyatlari orqali ancha yuqori po'gononalarga chiqish olishimiz mumkin. Aholisi soni 36 milliondan ortiq bo'lgan O'zbekistonda ijtimoiy media foydalanuvchilari soni oshib bormoqda. Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda mamlakatimizda Internet foydalanuvchilari 22 million kishini tashkil qiladi[3]. Ulardan 19 millioni mobil Internetdan foydalanadilar va messenjerlar orqali muloqot qiladilar. Bu degani bizning davlatimizda mediasavodxonlik ancha rivojlanmoqda va uning imkoniyatlaridan unumli va samalari foydalanish orqali biz o'z imkoniyatlarimizni yanada kengaytirishimiz mumkin.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mediasavodxonlik natijasida jamiyatda keskin o'zgarishlar, rivojlanishlar bo'lishi mumkin. Ayniqsa talabalar mediasavodxonlik ko'nikmalarini egallash orqali axborotlarni tez va oson qabul qilishi, topishi va ularni mustaqil ravishda baholash, tanqid qilish va tahlil etish bilimlarini egallaydilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Media\\_savodxonlik](https://uz.wikipedia.org/wiki/Media_savodxonlik)
2. <https://yuz.uz/uz/news/dolzarb-masalalar-muhokama-qilindi>
3. Ахборот технологиялари ва коммуникацияларини ривожлантириш вазирлиги веб-сайти – <https://mitc.uz/uz> дан олинди.

4.<http://kompy.info/media-savodxonlik-va-axborot-madaniyati-evolyusiyasi-hamda-jam.html?page=2>

5. Media va axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jihatlari. O'quvamaliy qo'llanma.-T.:Extremum-press, 2017

6. Maksudov, U. K. (2020). CHARACTERISTIC OF THE PROCESS OF DEVELOPMENT OF SOCIAL ACTIVITY SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH FOLKLORE. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(7), 407-412.

